

**OBRAZ PSIXOLOGIYASINING QAHRAMON XARAKTERI VA
HARAKATLAIDA TASVIRLANISHI**

Ubaydulloyeva Vazira Azimjon qizi,

Toshkent viloyati Chirchiq shahar pedagogika universiteti,

Gumanitar fanlar fakulteti I bosqich magistranti

Nurboy Jabborov Abdulhakimovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti

kafedrasi mudiri, filologiya fanlar doktori, professor.

Abstract: *In this article, it is written about images, their types, the creation of images, factors that indicate the inner world of the hero, the character's actions, speech, and many other means of understanding the psyche of the image.*

Аннотация: *В данной статье написано об образах, их видах, создании образов, факторах, указывающих на внутренний мир героя, действиях, речи персонажа и многих других средствах понимания психики образа.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada obrazlar, ularning turlari, obrazlar yaratilishi, qahramon ichki olamini bildiruvchi omillar, qahramonning harakatlari, nutqi va yana ko`plab vositalar tasviri vositasida obraz ruhiyatini angash haqida yozib o`tilgan.*

So`ngi yillarda yozilayotgan ilmiy maqolalar, ilmiy ishlar, monografiyalar, risolalar psixologik tahlil, psixoanalitik usul, ularning tasvir vositalari, muallif psixologiyasiga oid qator fikrlar bildirildi. Ularda ko`rsatilgan fikrlarni jamlaganimizda ularning hammasi obrazni xarakterini ochishga, anglashga yo`naltirilgan.

Adabiyot qalb bilan, inson ruhiyati bilan bo`g`liqdir, asarning asl g`oyasini obrazlar orqali tinglovchiga havola qilish ham bu yuksak bir san`atdir. Bir obraz tashkil etish bu bir inson demakdir. Yozuvchi unga yangi qiyofa, xarakter beradi

va obrazlarning ichki dunyosi yozuvchiga yaqqol namoyon bo`ladi, kitob xon esa sinchikov bo`lishi qahramonlarning ichki dunyosini anglashishi zarur. Qahramonlar ruhiyatidagi o`zgarishlar, hayotning obraz xarakterini o`zgartirganini, ongidagi konfliktlarni asar davomida o`rganib boriladi. Qahramonlar salbiy va ijobiyga bo`linadi, lekin shunday qahramonlar borki ulani yaxshi va yomonga ajrata olmaysiz bunday vaziyat esa kitoobxonning tanlovi.

Obrazlaraga quyiladigan talablardan eng asosiysi hayotdagi kishilarning fe`l- atvoriga mos kelishi va hayotiy bo`lishidir. Obrazlar yozuvchilar tomonidan jamlash yo`li ya`ni kuzatishlar asosida xarakterlar jamlanib bir butun obraz yaratiladi. Ikkinchi yo`l prototip bo`lib ma`lum shaxsga tayaniladi.

Obrazlar murakkab xarakterga ega bo`lishi shu bilan birga o`zgaruvchan ham bo`ladi. Yozuvchining mahorati orqali namoyon bo`ladi. Murakkab obrazlarda fe`l-atvorlar xilma xilligi, ular orasidagi kurashlar namoyon bo`lsa, o`zgaruvchan obrazlarda qahramonga voqea, zamon va makon ya`na boshqa ko`plab omillar ta`siri orqali uning xarakterida o`zgarishlar kuzatiladi, qahramon dunyoqarashi butkul boshqa tomonga aylanishi mumkin.

Adabiy tur va janrlar, uslub va tasvir vositalariga ko`ra: epik, lirik, dramatik, fantastik, afsonaviy, mifologik, ma`joziy, kinoyaviy, satiric, yumoristik kabi obrazlarga bo`linadi. Har biridagi obrazlar ma`lum maqsadlar uchun xizmat qiladi. Ularning psixologiyasi ham turlicha.

Psixologizm tushunchasining kelib chiqishi ancha oldingi hisoblanadi ya`ni insonni tasvirlay boshlagan davrdan boshlab. Qahramonning nafaqat xati-harakatlari balki uning ichi olami ham tasvirlana boshlagan, bu esa turlicha yondashuvlar asosida olib borilgan, eng asosiylari:

- qahramonning nutqi
 - qahramonning harakatlari
- orqali.

“Adabiyot- fikr, tuyg`ularimizdag`i to`lqunlarni so`zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to`lqinlarni yaratmoqdir” degan edi professor Abdurauf Fitrat.¹

Obrazning nutqi orqali uning ichi dunyosini aniqroq bilamiz, ba`zan yozuvchilar tomonidan obrazlarga ta`rif beriladi uning fe`l- atvori ko`rsatiladi, ba`zan bo`lsa kitobxonga qo`yib beriladi qahramonni ichki olamini aniqroq bilishni. Bu esa monolog va diologlar orqali yuzaga keladi, ayniqsa monologlarning o`rni beqiyos, chunki qahramon o`zini taftish qilishi, o`zi bilan gapirishi orqali uning qanday xarakterga ega ekanligini bilish osondir, chunki inson atrofdagilarni aldashi mumkindir, o`zini aldamaydi qanday bo`lsa shunday ko`rinadi. Dramatik asarlarda diolog va remarklardan foydalaniladi qahramon ichki dunyosini ko`rsatishda. Nutq tempi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak quyidagilar orqali ichi olamini bilishimiz mumkin:

- 1) Monolog
- 2) Diolog
- 3) Nutq tempi

Ya`na bir muhim unsurlaridan bu xati-harakatlardir. Qahramon o`zining harakati, mimikalari, o`zini tutishi orqali ham namoyon qiladi. Bunda obrazning psixologiyasini bilib olish mumkin. Ba`zan shunday holatlar bo`ladiki bunday holatlarni so`z bilan ifodalab bo`lmaydi bunday holatlarda tana harakatlari, mimikalar, pantomima elementlari qahramonni tushunishga yordam beradi.

Yana qo`shimcha elementlar ham bor bo`lib ularning hammasi qahramon psixologiyasini tushunishga yo`naltirilgan:

1) Kiyimlar ham asar qahramonining psixologiyasini bildiradi. Yozuvchi tomonidan yuz, tana tuzilishi, kiyimlari ham tasvirlanadi bularning barchasi obrazning psixologiyasini yaqindan bilishga xizmat qiladi.

2) Yozuvchilar tomonida qahramon xarakterini ko`rsatishda nutqdan tashqari obrazning holatiga bog`lab tabiat tasviri, tush tasvir va boshqa ko`plab

¹ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham adabiyot havasmandlari uchun. Nashrga tayyorlovchi so`z boshi va izohlar muallifi H. Boltaboev, -Toshkent: «O`qituvchi», 1995, -B.21-22

tasvirlardan foydalaniladi. Bunday holatdan ham qahramonni anglashga yordam beradi. H. Umurov “psixologizmning formalari turli- tuman bo`lganidek uning portret, diolog, monolog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, gallyusinasiya kabi poetic vositalari ham rang-barangdir. Ularning har biri qahramon ichki dunyosini yashirin sirlarini oshkora qilishdayozuvchiga qo`l keladi”²

3) Qahramon yashayotgan ijtimoiy, siyosiy davr va uning atrofidagi insonlar, atrof-muhit hamma hamasi insonning xarakterini namoyon qiladi.

4) Qahramonning portreti ba`zan unig xarakterini ochib bera oladi. Masalan uning kiyimlari, gavda tutishlari, yurishi, yuzidagi ifodalar ham.

“Psixologizm atamasinitasvir (inson ichki dunyosi)predmeti emas, balki shaxsning psixologik hayotini estetik o`zlashtirish (badiiy tahlil usuli)sifatida tushunish lozim. Bunday tahlil ikki xil yo`nalishda ko`rinishi mumkin ochiq va yashirin- tagma`noli psixologizm”³ ma`lum bulyaptiki har qanday personaj holati ham berila bormas ekan, ba;zan obrazdagi o`zgarishlar yozilsa , ba`zan shama qilinadi.

Xulosa

Xulosa o`rnida shuni aytmoqchimanki obrazlar xilma xil, ularni his qilish bu ham mahoratdir, yozuvchining qahramon orqali nima demoqchiligi, maqsadi nima ekani yozuvchining obraz orqali kitobxonga yetkazmoqchi bo`lgan darslaridir. Obrazlarni anglash kitobxondan sinchikovlik talab qiladi, personaj nutqi, harakati va boshqa yo`llar orqali obraz psixologiyasi anglanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Izat Sulton. Adabiyot nazaryasi.1980 y.

Shuhrat Rizayev. Jadid dramasi.-T.1997 y.

² Umarov H., Risolalar Saylanma 1 jild-Toshkent: Fan, 2007,-B:34-35

³ Botirova Shaxlo Isamiddinovna. Hozirgi o`zbek romanlarida badiiy psixologizm.Diss.Qarshi:2019,-B.23-24

Yokubova S.I. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. – B. 79-90

<https://yoshlarportali.uz/oz/magazine/265>

<https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1073/870>

<https://www.oriens.uz/journal/article/abdulla-avlony-asarlarining-lingvopoetikasi-xususida/>

<https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-avlony-asarlarida-pedagogik-odob-axloq-va-na-naviy-ma-rifiy-tarbiya-g-oyasi/viewer>